



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "10" *oktabr*

QAROR *15* -son

Toshkent sh.

### **O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu yo'riqnoma Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalarga ishda foydalanish uchun yetkazilsin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Respublika komissiyasi  
raisining o'rinbosari,  
Qo'mita raisi**

**B. Hamrayev**

**O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni  
o'tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha  
YO'RIQNOMA**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Yo'riqnoma hududiy statistika organlarining tuman, shahar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini (keyingi o'rinlarda – tuman (shahar) tashkiliy rejasini) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazish (keyingi o'rinlarda – ro'yxatga olish)ning yig'ma tashkiliy rejalarini (keyingi o'rinlarda – yig'ma tashkiliy reja) tuzishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

2. Tuman (shahar)larning tashkiliy rejalarini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlar sonini aniqlash va moddiy-texnik ta'minlash maqsadida ishlab chiqiladi.

3. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va tuman (shahar) tashkiliy rejasini tuman (shahar) statistika bo'limlari va mahalla hududiy statistika boshqarmalari xodimlari ishtirokida tuziladi va mazkur Yo'riqnomaning 1-10-ilovalariga muvofiq jadvallar shaklida rasmiylashtiriladi. Ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha tuman (shahar) komissiyasi bilan kelishilgan tashkiliy reja 2025-yil 25-oktabrdan kechiktirmay Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalariga (keyingi o'rinlarda – statistika boshqarmalari) ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tuman (shahar) mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va statistika bo'limi boshlig'i tuman (shahar) tashkiliy rejasini tuzish uchun mas'ul hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha yig'ma tashkiliy rejalar statistika boshqarmalari xodimlari tomonidan tuziladi va ushbu Yo'riqnomaning 11-15-ilovalariga muvofiq jadvallar shaklida rasmiylashtiriladi. Ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha viloyat komissiyasi bilan kelishilgan holda 2025-yil 1-noyabrdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga (keyingi o'rinlarda – Milliy statistika qo'mitasi) ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Ro'yxatga olishni o'tkazish tashkiliy rejasining asosiy ko'rsatkichlari ushbu Yo'riqnomaning 16-19-ilovalariga muvofiq jadvallar ko'rinishida Milliy statistika qo'mitasining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi

tomonidan shakllantiriladi hamda 2025-yil 15-noyabrdan kechiktirmay Milliy statistika qo‘mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

## **II bob. Tuman (shahar) tashkiliy rejasining tarkibi**

4. Tuman (shahar) tashkiliy rejasi quyidagilardan iborat:

mahalla fuqarolar yig‘inlarida eng kichik bo‘linmasi bo‘lib, bir nafar ro‘yxatga oluvchi tomonidan belgilangan muddatda (25 kunda) to‘liq qamrab olinadigan xonadonlar, uy xo‘jaliklari yoki xo‘jalik subyektlari majmuasini **hisob uchastkasini** tashkil etadi. Hisob uchastkalari faoliyatini muvofiqlashtirish va ro‘yxatga olish ishlari jarayonini tashkil etish uchun mas‘ullar **mahalla fuqarolar yig‘ini raislari** hisoblanadi;

bir yoki bir nechta hisob uchastkalarini o‘z ichiga olgan hududiy birlik **ro‘yxatga olish uchastkasi** hisoblanadi. Shuningdek, hisob uchastkalari yig‘indisi ro‘yxatga olish uchastkasini tashkil etadi.

tuman, shahar, shahar tumani, shaharcha, mahalla va qishloq aholi punkti hududini ro‘yxatga olish va hisob uchastkalariga bo‘lish (keyingi o‘rinlarda – uchastkalarga bo‘lish);

ro‘yxatga olishni amalga oshiruvchi vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar va aholining ayrim toifalarini ro‘yxatga olishni amalga oshiradigan tashkilotlarning xodimlari (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga oluvchi xodimlar deb ataladi) sonini belgilash;

aholining ayrim toifalarini ro‘yxatga olishni tashkil etish.

5. Tuman (shahar) tashkiliy rejasi mazkur Yo‘riqnomaning 1-10-ilovalariga muvofiq jadvallar shaklida rasmiylashtiriladi:

- 1-yig‘ma (tuman (shahar)) “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning tashkiliy rejasining asosiy ko‘rsatkichlari” (keyingi o‘rinlarda 1-yig‘ma tuman (shahar) jadvali deb ataladi);

- 1-TR “Shaharlar va shaharchalardagi ro‘yxatga olish uchastkalari tarkibi” (keyingi o‘rinlarda – 1-TR jadval);

- 2-TR “Shaharlar va shaharchalarni uchastkalarga bo‘linishi” (keyingi o‘rinlarda – 2-TR jadval);

- 3-TR “Mahalla va qishloq aholi punktlaridagi hisob uchastkalari tarkibi” (keyingi o‘rinlarda – 3-TR jadval);

- 4-TR “Qishloq joylarni uchastkalarga bo‘linishi” (keyingi o‘rinlarda – 4-TR jadval);

- 5-TR “Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlardagi hisob uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumot” (keyingi o‘rinlarda – 5-TR jadval);

- 6-TR “Aholining vaqtincha bo‘lish muassasalarida ro‘yxatga olishni tashkil etish to‘g‘risida ma‘lumot” (keyingi o‘rinlarda – 6-TR jadval);

- 7-TR “Ro‘yxatga olishga jalb qilinadigan vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar va ayrim toifadagi aholini ro‘yxatga oluvchi tashkilotlar xodimlari soni” (keyingi o‘rinlarda – 7-TR jadval);

- Yopiq hududlarda joylashgan tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot;

- Hisob uchastkalarini aholi soni bo‘yicha guruhlash.

6. Tuman (shahar) tashkiliy rejasi viloyat bo‘ysunuvidagi shahar, shahar tumani va har bir tuman uchun tuziladi.

### **III bob. Shaharlar, shaharchalar, mahallalar va qishloq aholi punktlarini ro‘yxatga olish uchastkalariga ajratish tartibi**

7. Tuman (shahar) mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va statistika bo‘limlari xodimlari tomonidan ro‘yxatga olishni amalga oshirish uchun ro‘yxatga olish va hisob uchastkalarining nazorat soni hisoblab chiqiladi. Yopiq hududlarda, aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda yashovchi ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun tashkil etiladigan uchastkalar nazorat raqamiga kiritilmaydi.

Ro‘yxatga olish va hisob uchastkalari hamda vaqtinchalik ro‘yxatga olish xodimlarining soni aholi sonidan kelib chiqqan holda, shahar joylarda 900 kishi, qishloq joylarda 700 kishilik yuklamaning o‘rtacha me‘yori bo‘yicha belgilanadi. Aholi soni mahalla fuqarolar yig‘inlarining uy-joylar va ularda yashovchi aholi soni to‘g‘risidagi ma‘muriy ma‘lumotlari asosida hisoblanadi.

Ayrim hollarda uchastkalarni tuzishda ro‘yxatga oluvchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yuklama belgilangan normalardan kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin.

Har bir tuman, shahar, shahar tumani bo‘yicha ro‘yxatga olish va hisob uchastkalarining nazorat soni tegishli statistika boshqarmasi bilan kelishilishi lozim.

Internet tarmog‘i orqali ro‘yxatdan o‘tgan respondentlar ro‘yxati shakllangandan so‘ng, har bir hisob uchastkalariga respondentlar soni qayta taqsimlanadi. Shu asosda tashkiliy rejaga tegishli o‘zgarishlar kiritiladi.

8. Ro‘yxatga olishni uchastkalarga ajratish tuman (shahar) mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va statistika bo‘limlari tomonidan tumanlar, shaharlar, qishloq aholi punktlari va mahallalarning ko‘chalar va xonadonlar kesimida aholi soni ma‘lumotlari hamda xaritalari asosida amalga oshiriladi.

9. Tuman (shahar)larning tashkiliy rejalarini tuzish Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 13-iyuldagi “Aholi punktlarida turar joylar va binolar ro‘yxatini tuzish hamda registratorlik uchastkasi hududining sxematik rejasiga aniqlik kiritish bo‘yicha qo‘llanmani tasdiqlash haqida”gi 24-son qaroriga asosan

registratorlar tomonidan xatlovdan o'tkazilgan mavjud mahalla xaritalariga tegishli o'zgarishlarni kiritgan holda amalga oshiriladi.

Uchastkalar soni va vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari yuklamasining o'rtacha me'yorlariga muvofiq:

ro'yxatga olish uchastkalarining hududi va chegaralarini belgilash, ro'yxatga olish uchastkalarini hisob uchastkalariga bo'lish;

tashkil etilayotgan ro'yxatga olish uchastkasi doirasidagi hisob uchastkalarini, aholi punkti doirasidagi ro'yxatga olish uchastkalarini raqamlash;



kartografik materialda ro'yxatga olish va hisob uchastkalarining shartli chegaralarini rangli qalamlar yordamida ajratish.

Uchastkalar quyidagicha belgilansin:

 – ro'yxatga olish uchastkalari;

 – hisob uchastkalari

qo'yilgan belgilarga uchastka tartib raqami va aholi soni slesh belgisi orqali yozib qo'yiladi, jumladan,



10. Tuman (shahar) mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va statistika bo'limlari uchastkalarga ajratish ishlari yakuniga yetkazilgandan so'ng shaharlar, shaharchalar, mahallalar shuningdek, qishloq aholi punktlaridagi barcha uylarning hisob uchastkalari tarkibiga to'liq kiritilganligini va vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlariga ajratilgan yuklamaning o'rtacha me'yorlariga rioya etilganligini tekshirishlari lozim.

#### **IV bob. Uchastkalarga bo'lishning asosiy xususiyatlari**

11. Shaharlar va shaharchalardagi ro'yxatga olish uchastkalari tuman, shahar chegarasidan chiqmagan holda shakllantiriladi.

12. Ro'yxatga olish uchastkasi vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari yuklamasining o'rtacha me'yorlariga muvofiq hisob uchastkalariga bo'linadi.

Hisob uchastkalari shahar yoki shaharcha xususiyatiga muvofiq tashkil etiladi va bir mahalla doirasida quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

*ko'p qavatli uy yoki uning bir qismidan;*  
*bir nechta ko'p qavatli uy va boshqa uyning bir qismidan;*  
*ko'p qavatli uy va bir nechta yakka tartibdagi xususiy uylardan;*  
*bir nechta yakka tartibdagi xususiy uylardan va ko'p qavatli uyning bir qismidan;*  
*bir nechta yakka tartibdagi xususiy uylardan.*

13. Ro'yxatga olish uchastkalari bitta mahalla doirasida asosiy hisob uchastkalarini birlashtirish yo'li bilan tashkil etiladi. Hisob uchastkalari soni tegishli mahalla aholisi soniga bog'liq. Ro'yxatga olish uchastkalarini shakllantirishda mahallalarni bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Shahar, shahar tumani, shaharchalarni uchastkalarga bo'lish natijalari 1-TR, 2-TR-jadvallarida aks ettiriladi.

15. Qishloq joylarda ro'yxatga olish uchastkalari aholi soni bo'yicha qishloq aholi punktlarini bir mahalla doirasida birlashtirish yo'li bilan tashkil etiladi.

16. Qishloq aholi punktlari bo'yicha hisob uchastkalarini shakllantirish ularda yashovchi aholi soniga va vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari yuklamasining o'rtacha me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisob uchastkalari bir mahalla doirasida quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

*yaxlit qishloq aholi punktidan;*  
*bir nechta qishloq aholi punktlaridan;*  
*bir yoki bir nechta qishloq aholi punktlari va yaqin joylashgan qishloq aholi punktining bir qismidan;*  
*ko'p qavatli uy va bir nechta yakka tartibdagi xususiy uylardan;*  
*bir nechta yakka tartibdagi xususiy uylardan va ko'p qavatli uyning bir qismidan.*

Bir nechta qishloq aholi punktlarini bitta hisob uchastkasiga birlashtirishda ular o'rtasida ro'yxatga olishni o'tkazish davrida faoliyat ko'rsatayotgan yo'llar mavjudligini hisobga olish zarur.

17. Qishloq aholi punktlaridagi ro'yxatga olish uchastkalari hisob uchastkalarini birlashtirish yo'li bilan tashkil etiladi. Ro'yxatga olish uchastkasiga bir yoki bir nechta yaqin aholi punktlari kiradi.

Bir ro'yxatga olish uchastkasiga boshqa mahallalarning qishloq aholi punktlari kiritilmaydi.

18. Tumanning qishloq joylarida tashkil etilgan ro'yxatga olish uchastkalari natijalari 3-TR va 4-TR-jadvallarida aks ettiriladi.

## **V bob. Statsionar ro'yxatga olish uchastkalarini tashkil etish.**

19. Respondentlar uchun ro'yxatga olish savolnomalarini Internet tarmog'i orqali maxsus dasturiy ta'minot yordamida mustaqil to'ldirish imkoniyati yaratiladi.

Yashaydigan turar joyiga ro'yxatga oluvchining tashrif buyurishini hohlamagan respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini yozib olish uchun mahallalarda statsionar uchastka faoliyati tashkil etiladi.

Har bir ro'yxatga olish uchastkasida 1 nafar statsionar ro'yxatga oluvchi nazarda tutiladi.

Tuman (shahar)larda tashkil etiladigan statsionar ro'yxatga oluvchilar soni bo'yicha ma'lumotlar 2-TR, 4-TR-jadvallarida aks ettiriladi.

## **VI bob. Ro'yxatga olishni o'tkazishda aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda hisob uchastkalarini tashkil etish**

20. Tuman (shahar)ning tashkiliy rejasini tuzishda tuman (shahar) statistika bo'limlari va ro'yxatga olish shtablari hisob uchastkalari bilan birga maxsus muassasa va tashkilotlarda (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmonining 2-ilovasida keltirilgan aholi toifalari) yashovchi shaxslarni ro'yxatga olish uchun hisob uchastkalarini tashkil etilishini inobatga olishlari lozim.

Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda doimiy yashovchilar sonidan qat'iy nazar, alohida hisob uchastkasi tashkil etiladi, zarurat bo'lganda unda bir nechta hisob uchastkasi tashkil etilishi ham mumkin.

23. Mehmonxonalarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida, pansionatlarda, lagerlarda yoki jismoniy shaxslarning yashash (bo'lib turish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlarda (keyingi o'rinlarda – vaqtinchalik yashash uchun muassasalar) aholini ro'yxatga olish sanasida yashovchi (bo'lib turuvchi) respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plashda alohida hisob uchastkasi tashkil etilmaydi. Vaqtinchalik yashash uchun muassasalar o'zlari joylashgan hududdagi hisob uchastkasi tarkibiga kiritiladi.

24. Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar joylashgan hududi bo'yicha hisob uchastkasiga birlashtiriladi.

25. Statistika organlari tomonidan aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarga ularda doimiy yashovchi aholi soni, shuningdek ushbu toifadagi

aholini ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar soni to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishlari bo'yicha so'rov xati yuboradi:

26. Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda hisob uchastkalarini tashkil etish yoki hisob uchastkasiga birlashtirish natijalari 5-TR-jadvalga yoziladi. Ro'yxatga olishni o'tkazishni aholi vaqtincha bo'lish muassasalarida, shuningdek muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar 6-TR jadvaliga kiritiladi.

**VII bob. Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlarning xodimlari va vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlar sonini hisoblash**

27. Asosiy tarkibning vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari umumiy soni 2-TR va 4-TR jadvallari ma'lumotlari bo'yicha tashkil etilgan ro'yxatga olish va hisob uchastkalari soniga muvofiq aniqlanadi. Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda aholini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi xodimlar soni 5-TR jadvali ma'lumotlari, aholining vaqtincha bo'lish muassasalarida esa 6-TR jadvali ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlarning vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari soni to'g'risidagi ma'lumotlar 7-TR-jadvalida aks ettiriladi.

Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda aholini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi xodimlar soni ushbu muassasalar va tashkilotlarda yashovchilar sonini yuklamaning o'rtacha me'yoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholini vaqtincha bo'lish muassasalarida ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar soni tegishli muassasalardan olingan ma'lumotlarga muvofiq aniqlanadi.

28. Ro'yxatga oluvchilar zaxirasi bir ro'yxatga olish uchastkasiga ikki nafargacha nazarda tutiladi.

Vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlarining umumiy soni 7-TR-jadvalning 7-ustunida aks ettiriladi va mazkur jadvalning 3 va 6-ustunlari ma'lumotlari yig'indisiga teng bo'ladi.

Ro'yxatga olishni aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlarda o'tkazadigan xodimlarning umumiy soni 7-TR jadvalining 8-ustunida aks ettiriladi.

## **VIII bob. Yopiq hududlarda yashovchilarni ro'yxatga olish uchun ro'yxatga olish va hisob uchastkalarini raqamlash**

29. Tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan ro'yxatga olish va hisob uchastkalarining yagona tartib raqamlarini yaratish uchun yopiq hududlarda tashkil etiladigan uchastkalarga raqamlar beriladi.

Har bir tuman, shahar, shahar tumani, tumanlarga bo'linmaydigan viloyatga bo'ysunuvchi shahar doirasidagi yopiq hududlarda yashovchilarni ro'yxatga olish uchun bitta ro'yxatga olish uchastkasi tashkil etiladi va ushbu uchastkaga ro'yxatga olish uchastkalarining oxirgi raqamidan keyingi raqam beriladi. Ushbu ro'yxatga olish uchastkasi doirasida ketma-ket tartib raqami bilan hisob uchastkalari raqamlanadi.

Masalan, hududni uchastkalarga bo'lish natijalariga ko'ra tumanda uchta ro'yxatga olish uchastkasi tashkil etilgan. Yopiq hududlarda yashovchi aholini ro'yxatga olish uchun "4" - ro'yxatga olish uchastkasi tashkil etiladi. Ushbu ro'yxatga olish uchastkasi doirasida hisob uchastkalari soni 1 dan boshlab raqamlanadi.

30. Hisob uchastkasi ushbu obyektida ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan aholi sonining 900 nafargacha shakllantiriladi.

Ayrim hollarda uchastkalarni tuzishda ro'yxatga oluvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yuklama belgilangan normalardan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

Turli qishloq aholi punktlari, shaharlar, shaharchalar hududida joylashgan obyektlar bitta hisob uchastkasiga kiritilmaydi.

Yopiq hududlardagi obyektlar va ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli tashkilotlardan olingan ma'lumotlarga muvofiq aniqlanadi.

Berilgan raqamlar mazkur Yo'riqnomaning 9-ilovasiga muvofiq jadvalga yoziladi va tashkilot ma'muriyatiga ma'lum qilinadi.

## **IX bob. Tuman (shahar) tashkiliy rejasini tuzish va taqdim etish tartibi**

31. Ro'yxatga olish uchastkalariga ajratish hamda vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari va aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi xodimlar soni aniqlangandan so'ng tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 1-yig'ma (tuman (shahar) jadvali to'ldiriladi.

1-yig'ma (tuman (shahar) jadvalining II. "Ro'yxatga olish, hisob va statsionar uchastkalari soni" bo'limida "shu jumladan shaharlarda, shaharchalarda" qatoriga 2-TR-jadvalning 1, 4, 5-ustunlari bo'yicha yakuniy ma'lumotlar, "shu

jumladan qishloq aholi punktlarida” qatoriga – 4-TR-jadvalning 1, 4, 5-ustunlari bo'yicha yakuniy ma'lumotlar yoziladi. 1-jadval tuman (shahar) jadvalining III. “Vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari soni” 7-TR jadvali asosida to'ldiriladi.

32. Ro'yxatga olishni o'tkazishni tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyasi bilan kelishilgan 1-jadval (tuman (shahar) ikki nusxada statistika boshqarmalariga taqdim etiladi. 1-yig'ma (tuman (shahar)) jadvalining har bir nusxasiga 1-TR, 2-TR, 3-TR, 4-TR, 5-TR, 6-TR, 7-TR jadvallari, uchastkalarga ajratilgan kartografik materiallar va izoh xati ilova qilinadi. Izoh xatiga quyidagilar kiritiladi:

- ro'yxatga olish uchastkalarini tashkil etishning alohida holatlari;
- vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlarining haqiqiy yuklamasi;
- zarurat bo'lganda belgilangan yuklamaning o'rtacha me'yorlaridan chetga chiqishini asoslash, shuningdek, ayrim uchastkalardagi eng yuqori va eng kam yuklamani tushuntirish.

Izoh xatida ushbu Yo'riqnomaning 10-ilovasiga muvofiq aholi soni bo'yicha hisob uchastkalarini guruhlash kiritiladi.

Tuman (shahar) tashkiliy rejasi 1-yig'ma (tuman (shahar) shaklining bir nusxasi va kartografik material tuman (shahar) statistika bo'limiga qaytariladi. Tuman (shahar) tashkiliy rejasining ikkinchi nusxasi statistika boshqarmalarida qoladi.

### **X bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yig'ma tashkiliy rejalarni tuzish va ularni taqdim etish tartibi**

33. Yig'ma tashkiliy rejani tuzish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahri hududida tashkil etiladigan ro'yxatga olish va hisob uchastkalari sonini aniqlash;

vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlari va aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olishni amalga oshiruvchi xodimlar sonini aniqlash.

34. Yig'ma tashkiliy rejani tuzish maqsadida statistika boshqarmasi tuman (shahar) statistika bo'limlari boshliqlaridan tuman (shahar) tashkiliy rejalarni qabul qilib oladi va ularni tekshiradi, ya'ni:

har bir tuman, shahar, shahardagi tuman, tumanlarga bo'linmaydigan viloyat bo'ysunuvidagi shahar uchun tashkiliy rejalarning mavjudligi;

tashkiliy rejaning barcha jadvallari va kartografik materiallarning mavjudligi;

ro'yxatga olish va hisob uchastkalarining chegaralarini to'g'ri aniqlanganligi va kartografik materialga to'g'ri chizilganligi;

vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlariga yuklamaning o'rtacha me'yorlariga rioya qilinganligi (2-TR va 4-TR jadvallari ma'lumotlari asosida), shuningdek, amalda tashkil etilgan ro'yxatga olish va hisob uchastkalari sonini statistika boshqarmasi bilan kelishilgan nazorat soni bilan solishtirish;

barcha shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlari va mahallalarni tashkiliy rejaning jadvallariga to'liq kiritilganligi;

har bir shahar, shaharcha, qishloq aholi punkti va mahallalar bo'yicha ma'lumotlarning 1-yig'ma (tuman/shahar) jadvallarini tuzishda olingan ma'lumotlarga muvofiqligi;

tashkiliy reja jadvallarining o'zaro muvofiqligi.

35. Yig'ma tashkiliy reja Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahri bo'yicha tuziladi. Tumanlar, shaharlar, shaharchalar, Toshkent shahar tumanlari, mahallalar nomlari alifbo tartibida yoziladi.

Statistika boshqarmalarida 11-15-ilovalarga muvofiq quyidagi jadvallar to'ldiriladi:

1-yig'ma (viloyat) jadvali "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tashkiliy rejasi asosiy ko'rsatkichlari" (keyingi o'rinlarda – 1-yig'ma (viloyat) jadvali);

2-TR-yig'ma "Shaharlar va shaharchalarni uchastkalarga bo'linishi" (keyingi o'rinlarda – 2-TR-yig'ma);

3-TR-yig'ma "Qishloq joylarni uchastkalarga bo'linishi" (keyingi o'rinlarda – 3-TR-yig'ma);

4-TR-yig'ma "Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlar va aholining vaqtinchalik bo'lish muassasalarida ro'yxatga olishni tashkil etish" (keyingi o'rinlarda – 4-TR-yig'ma);

5-TR-yig'ilish "Vaqtincha ro'yxatga oluvchi xodimlar va aholining ayrim toifalarini ro'yxatga oluvchi tashkilotlar xodimlari soni" (keyingi o'rinlarda – 5-TR-yig'ma).

36. Yig'ma tashkiliy reja jadvallari tuman (shahar) tashkiliy rejalari jadvallari asosida to'ldiriladi.

37. Yig'ma tashkiliy reja jadvallarini to'ldirish va ularning o'zaro muvofiqligini tekshirish tugagandan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yig'ma ma'lumotlari bilan 1-yig'ma (viloyat) jadvalining yakuniy ma'lumotlari, mahalla fuqarolar yig'inlarining uy-joylar va ularda yashovchi aholi soni to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlari, shuningdek, vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlariga yuklamaning o'rtacha me'yorlariga muvofiqligi solishtiriladi.

38. Ro'yxatga olishni o'tkazishni tashkil etish bo'yicha respublika komissiyasi bilan kelishilgan 1-yig'ma (viloyat) jadvali ikki nusxada Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi. 1-yig'ma (viloyat) jadvalining har bir

nusxasiga 2-TR-yig'ma, 3-TR-yig'ma, 4-TR-yig'ma, 5-TR-yig'ma jadvallari va izoh xati ilova qilinadi, unda quyidagilar qisqacha bayon qilinadi:

viloyat hududida uchastkalarga bo'lishning alohida holatlari;

vaqtinchalik ro'yxatga olish xodimlariga yuklamaning o'rtacha me'yorlariga rioya qilinganligi;

zarurat bo'lganda belgilangan yuklamaning o'rtacha me'yorlaridan chetga chiqishini asoslash, shuningdek, tuman, shahar va shaharchalarning ayrim uchastkalardagi eng yuqori va eng kam yuklamani tushuntirish.

Izoh xatida ushbu Yo'riqnomaning 10-ilovasiga muvofiq, aholi soni bo'yicha asosiy hisob uchastkalarini guruhlash kiritiladi.

Tashkiliy rejaning 1-yig'ma (viloyat) jadvallarining bir nusxasi Statistika boshqarmasiga qaytariladi, ikkinchisi — Milliy statistika qo'mitasida qoladi.

O'zbekiston Respublikasida  
aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning  
tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha yo'riqnomaga  
1-ilova

TASDIQLAYMAN

( tuman, shahar)  
aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish  
tadbirini o'tkazishni tashkil etish komissiyasi  
raisi, tuman (shahar) hokimi  
F.I.O

2025-y. " " "

O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tashkiliy rejasining  
asosiy ko'rsatkichlari

1- yig'ma (tuman (shahar))

Tuman, shahar nomi

I bo'lim. Umumiy ma'lumotlar

*birlik*

| Viloyatga<br>bo'ysunuv-<br>chi shaharlar<br>soni | Shahar<br>tarkibidagi<br>tumanlar soni | Tumanga<br>bo'ysunuvchi<br>shaharlar<br>soni | Shaharcha<br>-lar soni | Mahallalar<br>soni | Qishloq<br>aholi<br>punktla-<br>ri soni | Aholi soni, kishi                       |                                  |                                       |
|--------------------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------------|------------------------|--------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|----------------------------------|---------------------------------------|
|                                                  |                                        |                                              |                        |                    |                                         | Jami<br>(8,9<br>ustunlar<br>yig'indisi) | ulardan                          |                                       |
|                                                  |                                        |                                              |                        |                    |                                         |                                         | Shahar va<br>shaharcha-<br>larda | Qishloq<br>aholi<br>punktla-<br>r-ida |
| 1                                                | 2                                      | 3                                            | 4                      | 5                  | 6                                       | 7                                       | 8                                | 9                                     |
|                                                  |                                        |                                              |                        |                    |                                         |                                         |                                  |                                       |

II bo'lim. Ro'yxatga olish, hisob va statsionar uchastkalari soni

*birlik*

|                           | Ro'yxatga olish<br>uchastkalari soni | Hisob uchastkalari soni | Statsionar uchastkalari<br>soni |
|---------------------------|--------------------------------------|-------------------------|---------------------------------|
| A                         | 1                                    | 2                       | 3                               |
| Jami                      |                                      |                         |                                 |
| shu jumladan:             |                                      |                         |                                 |
| shahar va shaharchalarda  |                                      |                         |                                 |
| qishloq aholi punktlarida |                                      |                         |                                 |

III bo'lim. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchilar soni

*kishi*

|                                        | Jami<br>(1=2+5) | Ro'yxatga olish<br>uchastkalari<br>boshliqlari va<br>o'rinbosarlari | Ro'yxatga oluvchilar |        |                 |
|----------------------------------------|-----------------|---------------------------------------------------------------------|----------------------|--------|-----------------|
|                                        |                 |                                                                     | Asosiy<br>tarkib     | zaxira | Jami<br>(5=3+4) |
| A                                      | 1               | 2                                                                   | 3                    | 4      | 5               |
| Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchilar soni |                 |                                                                     |                      |        |                 |
| shu jumladan:                          |                 |                                                                     |                      |        |                 |
| shahar va shaharchalarda               |                 |                                                                     |                      |        |                 |
| qishloq aholi punktlarida              |                 |                                                                     |                      |        |                 |

Tuman (shahar) statistika  
bo'limi boshlig'i

(imzo)

(F.I.O.)

2025-y. (sana)

**Shahar va shaharchalardagi ro'yxatga olish uchastkalarining tarkibi**

1-TR jadvali

Shahar, shaharcha nomi

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining ismi, sharifi:

Ro'yxatga olish uchastkasi raqami

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining ismi, sharifi:

Ro'yxatga olish uchastkasi joylashgan manzil:

davomi

[illegible]

## Tuman (shahar) statistika bo'limi boshlig'i

\_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.O.) \_\_\_\_\_ 2025-y. \_\_\_\_\_ (sana)

## Shahar va shaharchalarni uchastkalariga bo'linishi

2-TR jadvali

Tuman, shahar nomi Buxoro sh

| Shahar, shaharcha nomi;<br>ro'yxatga olish uchastkasi raqami | Ro'yxatga olish uchastkasi |              | Tashkil etilgan uchastkalar soni, birlik |            | O'rtacha hisob uchastkasiga to'g'ri keladi |                      |
|--------------------------------------------------------------|----------------------------|--------------|------------------------------------------|------------|--------------------------------------------|----------------------|
|                                                              | uyalar, birlik             | aholi, kishi | hisob                                    | statsionar | uyalar, birlik (5=1:3)                     | aholi, kishi (6=2:3) |
| A                                                            | 1                          | 2            | 3                                        | 4          | 5                                          | 6                    |
| Jami                                                         |                            |              |                                          |            |                                            |                      |
| 1                                                            | 2000                       | 6000         | 5                                        | 1          | 400                                        | 1200                 |
| 38                                                           |                            |              |                                          |            |                                            |                      |

Tuman (shahar) statistika  
bo'limi boshlig'i

(imzo)

(F.I.O.)

2025-y. \_\_\_\_\_ (sana)

**Mahalla va qishloq aholi punktlaridagi ro'yxatga olish va hisob uchastkalari tarkibi**

3-TR jadvali

\_\_\_\_\_ varaqda

Tuman nomi

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining ismi, sharifi:

Ro'yxatga olish uchastkasi raqami

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining ismi, sharifi:

Ro'yxatga olish uchastkasi joylashgan manzil:

| Hisob uchastkasi<br>raqami                        | Qishloq aholi<br>punktining<br>MXOBT xos raqami | Qishloq aholi punkti, ko'cha, tor<br>ko'cha va boshqalar nomi, | Uy raqami | Xonadon<br>raqami | Yashovchi<br>aholi soni,<br>kishi | Aholining ayrim toifalari mavjud tashkilotlar va aholining<br>vaqtincha bo'lish muassasalari |                                |                                |
|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|-----------|-------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|
|                                                   |                                                 |                                                                |           |                   |                                   | Tashkilot<br>nomi                                                                            | undagi                         |                                |
|                                                   |                                                 |                                                                |           |                   |                                   |                                                                                              | yashovchi aholi<br>soni, kishi | yashovchi aholi<br>soni, kishi |
| A                                                 | 1                                               | 2                                                              | 3         | 4                 | 5                                 | 6                                                                                            | 7                              | 8                              |
| Ro'yxatga<br>olish<br>uchastkasi<br>bo'yicha jami | X                                               | X                                                              |           |                   |                                   | X                                                                                            |                                |                                |
| 1.1                                               | 171221680541                                    | 1-tor ko'cha                                                   |           | 32                | 3                                 |                                                                                              |                                |                                |
| 1.1                                               | 171221680541                                    |                                                                |           |                   |                                   |                                                                                              |                                |                                |
| 1.1                                               |                                                 |                                                                |           |                   |                                   |                                                                                              |                                |                                |
| 1.1                                               |                                                 |                                                                |           |                   |                                   | haybiy                                                                                       | 2300                           |                                |
